



**TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATION
G'OYALAR**

Sayidova Madina Abdurasul qizi

Toshkent davlat transport universiteti talabasi

Annotatsiya: *Hozirgi kunda ilm-fan va texnologiyalar sohasidagi ilg'or ko'rsatkichlar ta'lim tizimini yaxshilash va o'qitish usullarini takomillashishiga olib kelmoqda. Tilni rivojlantirish jarayonida texnologiya va innovatsion g'oyalarning ham o'rni alohida ahamiyatga ega. Maqola, tanqidiy fikrlash, tafakkur va innovatsion g'oyalarning til bilan bog'liqligini ko'rsatib o'tadi. Undan tashqari, tanqidiy fikrlashni shakllantirishda zamonaviy o'qitish usullariga va texnologiyalaridan foydalanishni maqsad qiladi.*

Kalit so'zlar: *tanqidiy fikrlash, g'oyalar, o'quvchi-yoshlar, aqliy salohiyat, fan-texnika taraqqiyoti, innovatsion texnologiyalar.*

Abstract: *Currently, advanced indicators in the field of science and technology are leading to the improvement of the education system and the improvement of teaching methods. The role of technology and innovative ideas in the process of language development is also of particular importance. The article shows the connection between critical thinking, thinking and innovative ideas with language. In addition, it aims to use modern teaching methods and technologies in the formation of critical thinking.*

Keywords: *critical thinking, ideas, students, intellectual potential, scientific and technological progress, innovative technologies.*

Kirish: *Hozirgi kunda jamiyat tanqidiy fikrlash va g'oyalarni qayta qurish borasida tafakkur qila oladigan shaxslarni talab qilmoqda. Tanqidiy fikrlash nafaqat talaba-yoshlarning o'quv jarayoniga asqotadigan, ba'lk keyingi shaxsiy hayotida ham zarur bo'lgan omillardan biri hisoblanadi. Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish uchun ko'mak bo'ladigan usullarni ko'rib chiqamiz.*

Adabiyotlar tahlili: *Shunday qilib, tanqidiy fikrlash alohida mahorat emas, balki bolaning rivojlanishi va ta'lim olish jarayonida asta-sekin shakllanadigan ko'plab ko'nikma va qobiliyatlar majmuasidir. Agar darslarda bolalar passiv tinglovchilar bo'lmasalar, lekin ular o'rganganlarini o'zlarining amaliy tajribalari bilan bog'lab, doimiy ravishda (faol ravishda ma'lumot qidirsalar, tezroq shakllanadi)[1]. Darhaqiqat, yoshlarni tanqidiy fikrlash jarayoni aynan o'quv paytidan boshlanadi va ulardagi fikrlashni shakllantirishda o'qituvchilar turli*



metodlardan foydalanishadi. Ular ko'p hollarda o'rganilayotgan mavzuga qiziqishni orttirib, ularga yangi g'oya berishni taklif berishadi va bunda o'quvchidan o'z fikrini ayta olishni shakllantirishadi. Bunda esa, o'quvchi yoshlarda qarshi fikr qo'llash, g'oyani aniq tushuna olish, mantiqni tushuna olish, ishonchliligiga shubha qilish va xulosa chiqarishni o'rgatadi.

Tanqidiy fikrlash va samarali qarorlar qabul qila olish bilimli shaxs ega bo'lishi kerak bo'lgan kognitiv qobiliyatdir. Tanqidiy fikrlash ilm olishni harakatga keltiradigan vositadir. Demokratik jamiyatda shaxsning tanqidiy fikrlash qobiliyatiga ega bo'lishi, o'zining tanqidiy fikrlash va qaror qabul qilish ko'nikmalarini o'zlari duch keladigan murakkab ijtimoiy muammolarni hal qilishda qo'llash juda muhimdir. Faylasuflarning qarashlariga ko'ra, tanqidiy fikrlash o'qitish jarayonida qo'llanilishi mumkin bo'lgan variantlardan biri emas, balki ta'limning ajralmas qismidir (Norris)[2]. Tanqidiy fikrlash inson hayotida ishonch bilan gapira oladigan holat hisoblanadi. Shu bilan birga yuqorida aytilgandek ijtimoiy nizolarni va qaror qabul qilish paytidagi muammolarni hal qilishda yordam beradi. Kognitivligiga sabab esa, aqliy salohiyatga ta'siri kuchliligi misol bo'la oladi. Undan tashqari, tahliliy tafakkurni oshib borishiga yordam beradigan jihatlarga xotirani yaxshilash, qarama-qarshi fikr berish yoki kognitiv qobiliyatni misol qilsak bo'ladi.

Hozirgi bosqichda fan-texnika taraqqiyoti mamlakatning iqtisodiy ahvoli va jahon bozoridagi raqobatbardoshligini belgilovchi omil hisoblanadi. Bu esa, o'z navbatida, innovatsiyalarni ham (ilmiy-texnika taraqqiyotiga ta'sir etuvchi omil sifatida) iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotning asosiy harakatlantiruvchi kuchiga aylantiradi. Bugungi kunda bu jamiyatning barcha sohalarining eng muhim elementi bo'lib, ular keyingi evolyutsiyani belgilab beradi va unga hissa qo'shadi[3]. Jadallashib borayotgan zamonda, innovatsion g'oyalar va texnika taraqqiyoti jamiyatning barcha sohalarida o'rin egallamoqda. Shu o'rinda insonlar uchun qulayliklar yaratmoqda. Misol tariqasida hozirgi kunda ommalashgan sun'iy intellektni olsak bo'ladi. Bunda biz istalgan mavzudagi ma'lumotlarni, yechimlarni yoki mantiqni topa olishimiz mumkin. Ko'rib turganimizdek, innovatsion texnologiyalar qulay imkoniyatlar yaratib bermoqda. Yechimi topilmagan savollarga javob topib bermoqda.

Qo'shimcha tarzda, ta'lim sohasidagi ilg'or g'oyalarni olsak bo'ladi. Boisi, hozirda oflayn o'qitish uslubiga qaraganda, onlayn o'qitish rivojlanmoqda. Turli xil metodlar va platformalar orqali o'qitish tizimi yo'lga qo'yildi. Bu bilan birga, izlanuvchilar uchun platformalarda qulayliklar va rag'batlantirishlar mavjud. Bunga misol qilib, "Ibrat Academy" platfromasidagi til darajasini baholash sertifikatini imkoniyat qilib olsak bo'ladi. Tizimda belgilangan mashqlar va video materiallar





TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



o'rganuvchilar uchun qulay vaqtga qo'yib, shaxsning platformasiga moslashtirilgan. Unda 10dan ortiq tillar mavjud va bosqichma-bosqich dasturni yakunlab, til bilish sertifikatiga ega bo'lishlari mumkin. Texnologiya rivojlanishi ta'lim dasturida sifatli va samarali natijalarga erishmoqda.

Xulosa: Xulosa o'rnida shuni aytishimiz kerakki, bugungi kundagi globallashuv va texnologik taraqqiyotda tanqidiy fikrlash, tafakkur qilish va innovatsion g'oyalar o'z o'rnini topib kelmoqda. Tanqidiy fikrlay olish faqatgina o'quv jarayonida emas, ba'lk i inson hayotidagi muhim jihatlaridan biri ekanligini isbotladik. Undan tashqari, innovatsion texnologiyalar, g'oyalar va onlayn o'qitish tizimidagi platformalarning hozirgi ta'lim sifatiga sezilarli ta'sir qilayotganini misollar orqali ko'rsatib o'tdik.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sattorovna M.SH (2023). Tanqidiy fikrlashni shakllantirishda zamonaviy o'qitish texnologiyalaridan foydalanishning ahamiyati b. 845
2. Ahmadova Shohsanam (2024) Tanqidiy fikrlashning ta'limdagi o'rni b.4
3. Igamova Sh.Z Zamonaviy innovatsiyalarning nazariyasi va bugungi kundagi tajribalar (2023) b. 73